

HURMATLI HAMKASBLAR!

# MAKTAB VA HAYOT

JURNALIGA 2023 YIL UCHUN OBUNA BOSHLANDI

2023 yilda "MAKTAB VA HAYOT" jurnalida (ilovasi bilan) turli ilmiy-metodik, didaktik, me'yoriy hamda axborot materiallari quyidagi ruknlarda nashr etiladi:

- Kasb-hunarga yo'naltirish nazariyasi va amaliyoti
- Ta'limda psixologik xizmat
- Amaliy psixologiya
- Oila psixologiyasi
- Defektologiya va tibbiy xizmat
- Inklyuziv ta'lim
- Axborot texnologiyalari
- Texnologiya
- Sog'lom avlod uchun
- Ota-onalar maktabi

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha ilmiy jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.

**Obuna indeksi: 1019**

Tahririyat telefonlari:  
tel / faks: 8 (0371) 246-21-02  
Web site: <http://www.tashxis.uz>  
E-mail: [maktabvahayot@sarkor.uz](mailto:maktabvahayot@sarkor.uz)

ISSN 2010-5460

# MAKTAB VA HAYOT

Ilmiy-metodik jurnal


8  
2022





Yaponiyaning xalqaro hamkorlik tashkiloti JICA tomonidan O'zbekistonda "Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'lim amaliyotini kuchaytirish" loyihasi doirasida Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta'lim laboratoriyasi bo'limi tomonidan respublika miqyosida o'tkazilgan seminarlardan lavhalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Karmana tumanidagi 2-maktabda "Inklyuziv ta'lim tajribasini rivojlantirish" mavzusida o'quv-trening mashg'uloti o'tkazildi.





## BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

## TAHIR HAY'ATI

Baxtiyor SAIDOV  
G'ayrat SHOUMAROV  
Rustem REIMOV  
Risboy JO'RAYEV  
Shaxnoza XALILOVA  
Boris BLYAXER  
Iroda ABDULLAYEVA  
Ayubxon RADJIYEV  
Sharibboy ERGASHEV  
Feruz QODIROVA

### Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva

### Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjayeva

### Kompyuterda sahifalovchi va dizayn

Mirtohir Xoliqov

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarining uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqriz qilinmaydi.

Mualliflarning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

### Muassislar:

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi "MAKTAB VA HAYOT" M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "MAKTAB VA HAYOT" dan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan chiqa boshlagan.

### MANZIL:

100095, Toshkent sh.,  
Olmazor t., Ziyo ko'chasi, 6A uy.  
Tel: (0371) 246-21-02

E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

**OBUNA INDEKSI - 1019**

## MUNDARIJA

<b>U.U.SHARIFXO'JAYEV, A.G.IBRAGIMOV, I.X.XO'JAMOV.</b> Milliy maktab uchun yangi avlod darsliklarini yaratishning konseptual asoslari.....	2
<b>O.U.AVLAYEV.</b> O'quvchilar xulqining psixologik himoya mexanizmlari bilan determinatsiyasi.....	4
<b>D.AHMEDOV.</b> O'smirlik davrining psixologik xususiyatlari .....	7
<b>F.A. AKRAMOVA.</b> Psixolog mutaxassisning oilaga psixologik xizmat ko'rsatishdagi asosiy vazifalari .....	8
<b>S.M.YULDASHEVA.</b> Shaxs kasbiy faoliyatining asosiy psixologik muammolari.....	10
<b>I.YU.BOBOJONOVA.</b> XXI asr ko'nikmalari va Blum taksonomiyasi.....	12
<b>M.M.KASIMOVA.</b> Inklyuziv ta'limda boshlang'ich sinf alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash.....	14
<b>O.S.ISHMATOVA.</b> Eshitishda nuqsoni bor bolalar og'zaki nutqini shakllantirishda fonetik ritmika texnologiyasining roli .....	16
<b>G.ALIMOVA.</b> Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonda aqli zaif bolalarni maktabga tayyorlash vazifalari .....	19
<b>3.H.YPYHOBA.</b> Технология дифференцированного подхода к формированию когнитивно-речевых знаний и умений у учащихся с нарушениями слуха .....	20
<b>A.XOLMATOV, K. OTAJONOV.</b> Umumiy o'rtta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni takomillashtirish.....	22
<b>K.N.JO'RABOYEV.</b> Kasbiy qiziqishlarni aniqlash amaliyoti.....	23
<b>SH.H.TURDIALIYEVA.</b> Bo'lajak logopedlarni tayyorlash jarayonida an'anaviy va innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari .....	26
<b>YO.I.ABDUMUTALIBOVA.</b> Miya falajiga chalingan 2-4 yoshli bolalarning sensomotor tomonini rivojlantirish.....	28
<b>I.NAZRULLAYEVA.</b> Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda iborali nutq rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	29
<b>M. TOLIPOVA.</b> Kasbning inson oldiga qo'yadigan talablari .....	31
<b>G.ABDULLAYEVA.</b> Nogironligi bo'lgan talabalarning oliy kasbiy ta'limini takomillashtirish yo'llari.....	33
<b>N.B.ZAIROVA.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan nutq nuqsonlari va ularni bartaraf etish .....	34
<b>M.A. SHKURULLAYEVA.</b> Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni .....	36
<b>G.X JUMASHEVA, A.ULIKPANOVA.</b> Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirish.....	38
<b>H.VALIYEVA.</b> Yoshlarning sport haqidagi fikrini aniqlash bo'yicha ijtimoiy tadqiqot.....	40
<b>B.O'.GENJEMURATOV.</b> Pedagoglarning kasbiy kreativ malakasini oshirish texnologiyasi .....	41
<b>D.R.BABAYEVA, M.G'.ZARIPOVA.</b> Bolaning ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanishi.....	43



## ESHITISHIDA NUQSONI BOR BOLALAR OG'ZAKI NUTQINI SHAKLLANTIRISHDA FONETIK RITMIKA TEXNOLOGIYASINING ROLI

O.S.Ishmatova, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Maxsus pedagogika" kafedrasida o'qituvchisi

В данной статье описывается роль фонетико-ритмической методики в формировании устной речи детей с нарушением слуха.

**Ключевые слова и понятия:** фонетическая ритмика, специальная педагогика, сурдопедагогика, движение и речь, кинестетика, изолированное произношение, принимаем исходную позицию, звук, слог, текст, ритм, темп, интонация, метод.

This article describes the role of the phonetic-rhythmic technique in the formation of oral speech in children with hearing impairment.

**Key words and concepts:** phonetic rhythm, special pedagogy, deaf pedagogy, movement and speech, kinesthetics, isolated pronunciation, take the starting position, sound, syllable, text, rhythm, tempo, intonation, method.

Hozirda, ayniqsa surdopedagogika sohasidagi erishilgan texnologik yutuqlar eshitishida muammosi bor insonlarga yangi imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Eshitishida muammosi bor bolalar nutqining rivojlanmasligi ikkilamchi nuqson sifatida kelib chiqadi. Nutqning orqada qolish darajasi eshituv funksiyasining buzilganlik davriga bog'liq bo'lishi mutaxassislariga yaxshi ma'lum va aynan to'g'ri tashkil etilgan korreksion muhit, har xil turdagi nutqning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Surdopedagogika sohasida ilg'or metodikalari bilan ajralib turgan qator olimlarimiz maktabgacha va maktab yoshidagi kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqini rivojlantirish borasida tadqiqot ishlarini olib borganlar.

**Fonetik ritmika** — bu maxsus mashqlar to'plami bo'lib, unda nutq va harakat uyg'unlashtirilgan holatda nutqiy materialni (tovush, bo'g'in, matn) umumiy tana (qo'l, barmoqlar, oyoq, bosh va korpus) talaffuz etish hisoblanib, bu borada 2022 yilda Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Maxsus pedagogika" kafedrasida yo'nalishida tadqiqot ishi olib borildi. 2 yillik tajriba-sinovlar natijasida tanlangan ob'ektlarda bolalarning og'zaki nutq imkoniyatlari sezilarli darajada ortgani ko'zga tashlandi.<sup>1</sup>

Endilikda ushbu metodikadan poytaxtimizning 101 va 106 maxsus ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida eshitishida muammosi bor bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yakka va guruhli mashg'ulotlarda, ritmika va talaffuzga o'rgatish mashg'ulotlarida foydalanib kelmoqdalar.

**Fonetik ritmika** - nutq va harakat uyg'unlashtirilgan holatda nutqiy materialni (tovush, bo'g'in, matn) umumiy tana (qo'l, barmoqlar, oyoq, bosh va tana) harakatlari bilan birga talaffuz etishdir. Bu mashg'ulotlarning maqsadi eshitishda nuqsoni bor bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish; ko'ruv-eshituv tasavvurini boyitish; tovush funksiyalarini faollashtirish; nutqiy faoliyatni faollashtirish; kinestetik sezgilar asosida nutqning talaffuz va harakatni ohangiga moslashtirishdan iborat. Vazifalari nutqiy nafasni normallashtirish va unga aloqador nutqning birlashishi; ovoz kuchini va balandligini o'zgartirish qobiliyatini shakl-

lantirish, normal tembrni me'yordan qo'pol ravishda chetga chiqmasdan saqlash; bo'g'inlar va so'z birikmalarida, so'zlarda hamda iboralarda tovushlarni va ularning kombinatsiyalarini to'g'ri takrorlash; nutq materialini ma'lum bir sur'atda takrorlash; turli ritmlarni his qilish, farqlash va takrorlash; his-tuyg'ularni turli xil intonatsion vositalar bilan ifodalash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish. Fonetik ritmika usuli talaffuz ustida ishlash mashg'ulotlarining har biriga nutq nafasi, ovoz, tovushlar va ularning kombinatsiyasi, ritm, temp, intonatsiya kabi jarayonlarni kiritishni tavsiya etadi.

Mualliflar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutqini shakllantirishda talaffuz ustida ishlashning birinchi qadami sifatida, fonetik ritmika maxsus metodikasidan foydalanishni taklif qiladilar. Bunda, o'qituvchi-surdopedagog eshitish qobiliyati past yoki yo'q bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy materialning ortib borishini va bolalarning talaffuz qobiliyatlari shakllanayotganini kuzatishi mumkin bo'ladi.

### FONETIK RITMIKA METODIKASI BO'YICHA TAXMINIY MASHG'ULOT ISHLANMALARI

**Maqsadi:** Eshitishda nuqsoni bor bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish; ko'ruv-eshituv tasavvurini boyitish; Tovush funksiyalarini faollashtirish; Nutqiy jarayonni faollashtirish; kinestetik sezgilar asosida nutqning talaffuz va ritmik ohangdorligini shakllantirish.

#### 1-dars

#### Guruhli mashg'ulot

#### Mavzu: A tovushini shakllantirish.

**1. Ta'limiy maqsad:** A tovushini shakllantirish, og'zaki talaffuzga o'rgatish.

**2. Tarbiyaviy maqsad:** Surdopedagog shaxsiga hurmat hissini tarbiyalash. Ko'rsatmalarni bajarishda hushyorlikni tarbiyalash.

**3. Korreksion maqsad:** Eshitishda nuqsoni bor bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish; ko'ruv-eshituv tasav-

<sup>1</sup> Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириш коррекцион машғулотларда эсжитишида муаммолари бўлган болаларнинг оғзакни нуркини фонетик ритмика орқали шакллантиришида «кувнок фонетик ритмика» технологиясининг самараси. О.С.ИШМАТОВА № 2/1 — 2022 жыл. С – 135-138 индекс.пхп (гоогле.ком)



vurini boyitish; tovush talaffuzini va nutqiy jarayonni faollashtirish; kinestetik sezgilar asosida nutqning talaffuz va ritmik ohangdorligini shakllantirish; A tovushining alohida "izolyasion" talaffuzini shakllantirish va rivojlantirish.

### Mashg'ulotning borishi:

#### I. Tashkiliy qism: Salomlashish.

«Yaxshi kayfiyat ulashamiz» o'yini.

#### II. «Shar» mashqi.

Maqsad: Diafragma bilan nafas olish qobiliyatini shakllantirish. O'yinning borishi: Bolalar aylana shaklida turib olib, qo'llarini diafragma sohasiga qo'yib, (nafas olish va nafas chiqarishni nazorat qilish maqsadida). Bu jarayonda nafas burindan olinib, og'iz orqali chiqariladi.

#### III. A tovushini hosil qilish.

Surdopedagog bolaga ko'rsatma beradi: — Boshlang'ich pozitsiyani tutamiz. Nafas olamiz, qo'llarimizni yon tomonlarga yoyib, bir vaqtning o'zida pa \_\_\_ ni cho'zib talaffuz etamiz. Harakatlarimiz bo'sh, sokin va yengil bo'lishini nazorat qilamiz. Barakalla. (Bolalar rag'batlantiriladi).

*(Surdopedagoglarga eslatma: a \_\_\_ belgisi unlining uzoq davom etuvchi talaffuziga mos keladi. Harakatlarni bola bilan birgalikda bajarung)<sup>1</sup>*

#### IV. Ovozni rivojlantirish:

Mashq tavsifi.

Surdopedagog bolalarga ko'rsatma beradi:

- qo'llaringizni musht qilib, belga qo'ying. Shu holatda mushtlarni ikki yonga zarb bilan pa-pa-pa deb takrorlang.

- qo'llarni yon tomonlarga yoyib, yuqoriga ko'taring. Pa bo'g'inini talaffuz qiling, shivirlagan tovushdan boshlang va qo'llaringizni ko'targaningizda ovoz kuchini oshiring. Qo'llarni eng yuqoriga ko'targanda, ovoz ham shunga ko'ra baland bo'ladi.

Mashqni bir necha marta takrorlang.

Surdopedagog bolaga ko'rsatma beradi: Mening gaplarimni tinglang. Takrorlang: -Surdopedagog bolalarga orqasini o'girib turadi va bo'g'inlarni talaffuz etadi. Bolalar bo'g'inlarni takrorlash bilan bir qatorda harakat bilan hamda harakatsiz ravishda takrorlaydilar.

*(O'qituvchi – surdopedagog, kerak bo'lganda, ko'rsatmalar beradi. Ko'pgina hollarda, ishning bir turi boshqasida ko'rsatmalarsiz, faqat taqlid orqali amalga oshiriladi).*

#### V. Mashg'ulotni yakunlash:

Bolalarni rag'batlantirish va yakunlash.

### 2-dars

#### Guruhli mashg'ulot

#### Mavzu: O tovushini shakllantirish.

**1. Ta'limiy maqsad:** O tovushini shakllantirish, og'zaki talaffuzga o'rgatish.

«a» tovushini takrorlash.

**2. Tarbiyaviy maqsad:** Surdopedagog shaxsiga hurmat hissini tarbiyalash. Ko'rsatmalarni bajarishda hushyorlikni tarbiyalash.

**3. Korreksion maqsad:** Eshitishda nuqsoni bor bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish; ko'ruv-eshituv tasavvurini boyitish; tovush talaffuzini va nutqiy jarayonni faollashtirish; kinestetik sezgilar asosida nutqning talaffuz va ritmik ohangdorligini shakllantirish; O tovushining alohida "izolyasion" talaffuzi shakllantirish va rivojlantirish. «A» tovushining to'g'ri talaffuzini mustahkamlash.

### Mashg'ulotning borishi:

#### I. Tashkiliy qism: Salomlashish.

«Yaxshi kayfiyat ulashamiz» o'yini.

#### II. «Shar» mashqi.

Maqsad: Diafragma bilan nafas olish qobiliyatini shakllantirish. O'yinning borishi: Bolalar aylana shaklida turib olib, qo'llarini diafragma sohasiga qo'yib, (nafas olish va nafas chiqarishni nazorat qilish maqsadida). Bu jarayonda nafas burindan olinib, og'iz orqali chiqariladi.

#### III. O tovushini hosil qilish.

Mashq tavsifi.

Surdopedagog bolaga ko'rsatma beradi: — Boshlang'ich pozitsiyani tutamiz. Nafas olamiz, qo'llarni bosim ostida yon tomonlarga yoyib, o \_\_\_ deb talaffuz qilamiz.... Harakat biroz tarang, zaif, cho'zilgan.

*(Surdopedagoglarga eslatma: a \_\_\_ belgisi unlining uzoq davom etuvchi talaffuziga mos keladi. Harakatlarni bola bilan birgalikda bajarung)<sup>2</sup>*

#### IV. Ovozni rivojlantirish:

Mashq tavsifi.

Surdopedagog bolalarga ko'rsatma beradi:

- qo'llaringizni musht qilib, belga qo'ying. Shu holatda mushtlarni ikki yonga zarb bilan pa-pa-pa deb takrorlang.

- qo'llarni yon tomonlarga yoyib, yuqoriga ko'taring. Pa bo'g'inini talaffuz qiling, shivirlagan tovushdan boshlang va qo'llaringizni ko'targaningizda ovoz kuchini oshiring. Qo'llarni eng yuqoriga ko'targanda, ovoz ham shunga ko'ra baland bo'ladi.

Mashqni bir necha marta takrorlang.

**Surdopedagog bolaga ko'rsatma beradi:** Mening gaplarimni tinglang, takrorlang: -Surdopedagog bolalarga orqasini o'girib turadi va bo'g'inlarni talaffuz etadi. Bolalar bo'g'inlarni takrorlash bilan bir qatorda, harakat bilan hamda harakatsiz ravishda takrorlaydilar.

*(O'qituvchi – surdopedagog, kerak bo'lganda, ko'rsatmalar beradi. Ko'pgina hollarda, ishning bir turi boshqasida ko'rsatmalarsiz, faqat taqlid orqali amalga oshiriladi).*

#### IV. Mashg'ulotni yakunlash:

Bolalarni rag'batlantirish va yakunlash.

<sup>1</sup> Власова Т.М., Пфафенродт А.Н.

<sup>2</sup> Фонетическая ритмика: Пособие для учителя. — М.: Гуманит. изд. центр «ВЛАДОС», 1996. 8-9 бетлар Власова Т\_М\_Пфафенродт А\_Н\_Фонетическая\_ритмика.пдф



3-dars

Guruhli mashg'ulot

Mavzu: U tovushini shakllantirish.

1. Ta'limiy maqsad: U tovushini shakllantirish, og'zaki talaffuzga o'rgatish.

«a» va «o» tovushlarini takrorlash.

2. Tarbiyaviy maqsad: Surdopedagog shaxsiga hurmat hissini tarbiyalash. Ko'rsatmalarni bajarishda hushyorlikni tarbiyalash.

3. Korreksion maqsad: Eshitishda nuqsoni bor bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish; ko'ruv-eshituv tasavvurini boyitish; tovush talaffuzini va nutqiy jarayonni faollashtirish; kinestetik sezgilar asosida nutqning talaffuz va ritmik ohangdorligini shakllantirish; U tovushining alohida "izolyasion" talaffuzini shakllantirish va rivojlantirish. «A» va «O» tovushining to'g'ri talaffuzini mustahkamlash.

Mashg'ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism: Salomlashish.

«Yaxshi kayfiyat ulashamiz» o'yini. (1-darsdagidek, takroriy)

II. «Shar» mashqi.

Maqsad: Diafragma bilan nafas olish qobiliyatini shakllantirish. O'yinning borishi: Bolalar aylana shaklida turib olib, qo'llarini diafragma sohasiga qo'yib, (nafas olish va nafas chiqarishni nazorat qilish maqsadida). Bu jarayonda nafas burindan olinib, og'iz orqali chiqariladi.

III. U tovushini hosil qilish.

Mashq tavsifi.

Surdopedagog bolaga ko'rsatma beradi: —

Boshlang'ich pozitsiyani tutamiz. Nafas olamiz. Bosim bilan u \_\_\_\_\_ talaffuz qilganda qo'llarimizni oldinga cho'zamiz.

Harakat tarang, kuchsiz, uzaygan

(Surdopedagoglarga eslatma: U \_\_\_\_\_ belgisi unlining uzoq davom etuvchi talaffuziga mos keladi. Harakatlarni bola bilan birgalikda bajarung!)

IV. Ovozni rivojlantirish:

Ovozning uzunligi ustida ishlash.

O'qituvchi bolalarga tovush va bo'g'inlarni uzoq va qisqa talaffuzini o'rgatish orqali turli xil harakatlarni bajariradi, shu bilan birga, uzoq cho'zib talaffuz etilgan tovushlarga, cho'ziq, davomiy harakatlar, talaffuzi qisqa bo'lgan tovushlarni esa keskin va qisqa harakatlar bilan bajarish:

Bo'ri uvvilladi: bo'ridek uvvillaymiz. Chuqur nafas olib: — u \_ \_ \_ — u \_ \_ \_ \_ (uzoq va cho'ziq);

- choy qaynadi: -Pu Pu Pu (qisqa va keskin);

-yerga o'tirib, koptokni qo'lingiz bilan u \_\_\_\_\_ deb aylantiring;

-Koptokni oldinga tashlang va qisqa — Pu-pu-pu deng;

-yerga yoki stol oldiga o'tirib, poezdni u \_ \_ \_ deb (mashinani) "uzoqqa" olib boring

-qo'llaringizni oldingizda (boshingiz ustida) yumaloq qilib bog'lang -o \_\_\_\_\_, bog'langan qo'llaringizni o \_\_\_\_\_ dab keskin pastga tushiring;

- qo'llaringizni yon tomonlarga a \_\_\_\_\_ deb sekin ravishda yoying:

keyin — o \_\_\_\_\_ deb qo'llaringizni ko'krak oldida tekis olib kelib bog'lang. qo'llaringizni keskin ravishda yon tomonlarga yoying va — a deb qisqa va baland ovozdagi talaffuz eting, uyndan so'ng u dab ko'krak oldida ulang;

Mashg'ulotning keyingi bosqichlarida mashqlarga tobora ko'proq yangi tovushlar kiritiladi, masalan.

(O'qituvchi — surdopedagog, kerak bo'lganda, ko'rsatmalar beradi. Ko'pgina hollarda, ishning bir turi boshqasida ko'rsatmalarsiz, faqat taqlid orqali amalga oshiriladi).

V. Mashg'ulotni yakunlash:

Bolalarni rag'batlantirish va yakunlash.

Mashg'ulotni tashkillashtirishda umumiy tavsiyalar:

- fonetik ritmika mashg'ulotlarini tashkillashtirishda bolalarning nutqiy imkoniyatlarini inobatga olgan holda individual yondashish lozim;<sup>2</sup>

- tovushlar postanovkasi davrini rejalashtirishda bolaning og'zaki nutq imkoniyatlarini inobatga olish lozim;

- fonetik ritmika mashg'ulotlariga bolalar somatik jihatdan tayyor bo'lishi lozim;

- surdopedagog barcha ritmik holatlarni o'zi to'liq bajarishi va bolalarning to'liq taqlidini nazorat qilishi lozim;

- korreksion ishning boshlang'ich davrida, fonetik ritmika mashqlarini (har bir elementini aniq bajarish ko'nikmasini shakllantirish uchun) ko'zgu oldida bajarish lozim.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni — T.:Sharq nashriyot — matbaa konserni, 2020 yil.

2. PQ-4860 Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2021 yil

3. Власова Т.М., Пфафенродт А.Н. Фонетическая ритмика: Пособие для учителя. — М.: Гуманит. изд. центр «ВЛАДОС», 1996.

<sup>1</sup> Власова Т.М., Пфафенродт А.Н. Фонетическая ритмика: Пособие для учителя. — М.: Гуманит. изд. центр «ВЛАДОС», 1996. 8-9 бетлар Власова\_Т\_М\_Пфафенродт\_А\_Н\_Фонетическая\_ритмика.пдф  
<sup>2</sup> https://infourok.ru/foneticheskaya-i-logopedicheskaya-ritmika-v-rabote-s-detmi-s-narusheniyami-sluha-3052503.html



# MAXSUS MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK JARAYONDA AQLI ZAIF BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH VAZIFALARI

G.Alimova, O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi  
Inklyuziv ta'lim laboratoriyasi bo'limi metodisti

В статье рассмотрены задачи подготовки детей с задержкой психического развития к школе в педагогическом процессе в специальных дошкольных образовательных учреждениях.

**Ключевые слова и понятия:** специальное дошкольное образование, дети, с особыми образовательными потребностями, непрерывное образование.

The article considers the tasks of preparing children with mental retardation for school in the pedagogical process in special preschool educational institutions.

**Key words and concepts:** special preschool education, children with special educational needs, continuous education.

Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim va tarbiya ishining keng dasturini amalga oshiradi va aqli zaif bolalarni maktab ta'limiga tayyorlaydi. Hozirgi vaqtda yuz berayotgan ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar xalq ta'limi butun tizimini yoshlar va bolalarni tarbiyalash, ularga ta'lim berishni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu vazifa xalq ta'limining boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan ko'p tarmoqli maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bevosita taalluqlidir. Ular hamisha maktab bilan uzviy bog'langan holda ishlab kelgan. Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan maktab o'rtasida o'rnatilgan izchil aloqaning har tomonlamaligi aqli zaif bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash vazifasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy shartidir. Izchillik – xalq ta'limi tizimining barcha bo'g'inlari o'rtasida o'zaro aloqa o'rnatishdir. Bu maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlariga va maktabda olib boriladigan korreksion ta'lim va tarbiya ishlari mazmuni, uni amalga oshirish uslublarining o'zaro bog'liqligi bilan belgilanadi. Shunga binoan, maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan maktab ta'limi o'rtasidagi bog'liqlik bir tomonda, aqli zaif bolalarni maktab ta'limi talablariga javob beradigan darajada umumiy rivojlantirish va odobli qilib tarbiyalagan holda maktabga o'tkazishni, ikkinchi tomondan, o'qituvchining katta yoshdagi bolalarni egallagan bilim, malaka sifatlariga va tajribalariga tayanib, ulardan o'quv-tarbiyaviy ishlar jarayonida samarali foydalanishni taqozo etadi.

Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan maktab o'rtasidagi uzviy bog'liqlik tayyorlov guruhlarda bolalar va maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish sharoitini yaqinlashtirishga yordam beradi. Shunday ish tutilganda aqli zaif bolalarning maktab sharoitiga moslashishi ancha yengillik bilan ko'chadi. Bolalar maktab sharoitiga tabiiy moslashib ketadilar, bu esa o'z navbatida maktabda o'qishning birinchi kunidan boshlab ta'lim-tarbiya ishining samarasini oshiradi.

Zero, maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari birinchi sinfda aqli zaif bolalar oldiga qo'yiladigan talablarni yaxshi bilishlari, maktabga tayyorlov guruhidagi aqli zaif bolalarni shunga muvofiq ravishda ta'lim olishga tayyorlashlari kerak. Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan yordamchi maktab o'rtasidagi uzviy aloqa murakkab va ko'p tomonlama tuzilishga ega. Unda korreksion ta'lim-tarbiyaviy ishlarning

mazmuni, metod va usullari, tashkiliy shakllari, shuningdek, aqli zaif bolalarni tarbiyalash shart-sharoitlari va pedagogik talab kabi yetakchi tomonlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Bunda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak:

1. Maxsus maktab talabi nuqtai nazaridan aqli zaif bolalar bilimni chuqurroq egallab olishlari lozim.

2. Maktabgacha ta'lim tashkiloti nuqtai nazaridan aqli zaif bolalarni maktab talabi darajasidagi bilim, malaka, ko'nikmalar bilan qurollantirish zarur.

3. Aqli zaif bolalarning maktabga ruhiy tayyorgarligi. Bu yerda vazifa bolalar mehnatining har qanday turiga tayyor turishlari, ularda aqliy mehnat-bilishga qiziqishni o'stirish, ularni kelajakdagi mustaqil faoliyatga tayyorlashdan iborat.

4. Maktabgacha ta'lim tashkilotida beriladigan korreksion ta'lim rivojlantiruvchi tarzda bo'lishi kerak.

5. Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan maktab o'rtasida izchil aloqa o'rnatish.

Maktabgacha tarbiya muassasasida katta guruhdagi aqli zaif bolalar boshlang'ich sinfi ta'limi maqsad va vazifalariga mos keladigan sifat jihatidan yangi xususiyatlarni shakllantiradi. Aqli zaif bolalarda axloqiy tasavvurlar va hulq-atvorda birlik bo'lishini tarbiyalash, o'z xatti-harakati uchun shaxsiy javobgarlikni seza bilish, jamoatchilik xislatlari, sifat jihatidan yangi bo'lgan xulq-atvor shakllarini tarkib toptirish uchun shart-sharoit yaratadi. Maktabda vatanparvarlik, o'z Vatan oldidagi burchini chuqur anglash kabi his-tuyg'ular shakllanadi. Bunda yuksak insoniy fazilatlar korreksion ta'lim-tarbiya asosida shakllanadi. Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarida aqli zaif bolalarni estetik tomondan tarbiyalash bo'yicha ham izchil ish olib boriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan maktab o'rtasidagi uzviy bog'liqlik aqli zaif bolalarda mehnat tarbiyasining mazmunini murakkablashtirishga, uni ijtimoiy foydali tomonga qaratishga, aqli zaif, aloqa asosini aqli zaif bolalarning mehnatdagi mustaqilligi, o'z-o'zini tashkil eta bilishga, ahloqiy munosabatlarning ongli tus olishiga olib keladi. Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlashda o'yin aqli zaif bolalar faoliyatining asosiy turi hisoblanadi.

O'yin maktabgacha tarbiya yoshdagi aqli zaif bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi.